

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRINING
BUYRUG'I

**MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMGA QO'YILADIGAN DAVLAT TALABLARINI
TASDIQLASH HAQIDA**

**[O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 9-aprelda ro'yxatdan
o'tkazildi, ro'yxat raqami 2663]**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 28-fevraldag'i 50-sonli "Maktabdan tashqari ta'lismizini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq buyuraman:

1. Maktabdan tashqari ta'limga qo'yiladigan davlat talablari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Vazir U. INOYATOV

Toshkent sh.,
2015-yil 31-mart,
7-mh-son

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirining 2015-yil 31-martdag'i 7-mh-son buyrug'iga
ILOVA

**Maktabdan tashqari ta'limga qo'yiladigan
DAVLAT TALABLARI**

Mazkur maktabdan tashqari ta'limga qo'yiladigan davlat talablari (bundan buyon matnda Davlat talablari deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasining "Ta'lismi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 8-iyuldag'i PQ-910-son "Bolalar musiqa va san'at muktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009 — 2014-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 18-fevraldag'i 59-son "Ta'lismi muassasalari haqidagi nizomlarni tasdiqlash to'g'risida"gi, 2004-yil 5-avgustdag'i 372-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi, 2011-yil 28-fevraldag'i 50-son "Maktabdan tashqari ta'lismizini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2011-yil 11-maydag'i 130-son "Barkamol avlod" bolalar markazlari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlariga muvofiq, maktabdan tashqari ta'limga qo'yiladigan davlat talablarini belgilaydi.

I bo'lim. Umumiy bo'lim

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Davlat talablari maktabdan tashqari ta'lismizda 6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan barcha o'quvchilarga ta'lismi berishda qo'llanilishi majburiyidir.

2. Davlat talablari asosida:

o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari, ularning har tomonlama rivojlanish darajalari hamda kasb-hunar to'g'risidagi boshlang'ich ko'nikmalari aniqlanadi;

o'quvchilarning kasb-hunar bo'yicha shakllangan boshlang'ich ko'nikmalari amaliyotda qo'llashga yo'naltiriladi.

3. Davlat talablari O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan quyidagi ta'lismi muassasalari tomonidan qo'llanilishi shart:

davlat va nodavlat maktabdan tashqari ta'lismi muassasalari;

yo'nalishlar bo'yicha to'garaklari mavjud bo'lgan mehribonlik uylari, bolalar shaharchalari va ta'lismi muassasalari;

maktabdan tashqari ta'lismi yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlovchi kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lismi muassasalari;

maktabdan tashqari ta'lim muassasalari kadrlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug'ullanuvchi muassasalar.

4. Davlat talablaridan barcha maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiyaviy ishini rejalashtirishda, dastur va uslubiy materiallar, metodik qo'llanmalar hamda o'quv adabiyotlarini tayyorlashda foydalaniladi.

2-bob. Davlat talablarining maqsad va vazifalari

5. Davlat talablarining maqsadi:

maktabdan tashqari ta'lim tizimi faoliyatini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, fan-texnika yutuqlariga asosan yo'lga qo'yish;

ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish; sifatli kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish;

o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish orqali ularning kasb-hunar sirlarini o'rghanishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish;

o'quvchilarning intellektual va jismoniy rivojlanishi, milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirilishini ta'minlash.

6. Davlat talablarining vazifalari:

o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish uchun har tomonlama yondashuvni ta'minlash;

o'quvchilarga o'zlarining maktabdan tashqari ta'lim bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarini shakllantirishda yordam berish;

har bir o'quvchining bilim darajasi va ijodiy imkoniyatlarini aniqlash va rivojlantirish;

o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash sifatini yaxshilash maqsadida o'quv-tarbiya va uslubiy ishlarni takomillashtirish;

o'quvchilar o'z qiziqishlari bo'yicha kasb-hunarning boshlang'ich sirlarini egallashlarida ota-onalarga ko'maklashish;

o'quvchilarning mustaqil bilim olishlari va ijodiy mehnat qilishlariga shart-sharoitlar yaratish;

maktabdan tashqari ta'lim sifatini yanada oshirish;

Oldingi tahrirga qarang.

maktabdan tashqari ta'lim to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarning amalga oshirilishini ta'minlash.

(6-bandning to'qqizinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021-yil 28-iyuldag'i 16-mh-sonli buyrug'i (ro'yxat raqami 3313, 28.07.2021-y.) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-sont)

3-bob. Qo'llanish sohasi

7. Davlat talablari uzlusiz ta'limning tegishli turlari bo'yicha maktabdan tashqari ta'lim sohasidagi muassasalarning ta'lim faoliyatini tashkiliy va ilmiy-metodik ta'minlash uchun qo'llaniladi.

8. Davlat talablari quyidagilarni belgilaydi:

maktabdan tashqari ta'lim tizimi tuzilmasi;

maktabdan tashqari ta'limga qo'yiladigan asosiy talablar;

maktabdan tashqari ta'lim bo'yicha mashg'ulotlarning o'quv yuklamasi hajmi;

maktabdan tashqari ta'lim sifatini nazorat qilish.

II bo'lim. Maktabdan tashqari ta'lim tizimi tuzilmasi

9. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi:

o'z tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida yo'nalish va to'garaklar ro'yxatini belgilaydi, ular faoliyatini muvofiqlashtiradi, shuningdek o'quv rejalarini va dasturlarini tasdiqlaydi;

maktabdan tashqari ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshiradi, pedagog kadrlarning malakasini oshiradi;

maktabdan tashqari ta'limga qo'yiladigan talablarni takomillashtiradi;

maktabdan tashqari ta'lim jarayoniga o'qitishning zamonaviy ilg'or shakllarini, axborot texnologiyalarini, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarali shakl va usullarini joriy etadi;

maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularga metodik rahbarlik qiladi;

maktabdan tashqari ta'lim uchun o'quv va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodlari yaratilishi va nashr etilishini tashkil etadi;

o'z tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining malaka oshirishlarini ta'minlaydi.

10. Xalq ta'limi tizimidagi hududiy boshqaruv organlari:

xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatiga rahbarlik qiladi hamda o'quvchilarni to'garaklarga jalb qilish orqali kasbga yo'naltirish ishlarini olib boradi;

maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtiradi, ular tomonidan davlat talablariga rioya etilishi monitoringini amalga oshiradi;

maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya ishlarini metodik ta'minlashni tashkil etadi;

maktabdan tashqari ta'lim tizimini takomillashtirish va Davlat talablarining tatbiq etilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi;

maktabdan tashqari ta'lim muassasalari dasturlari, o'quv-ko'rgazmali materiallar, texnik vositalar, metodik qo'llanma va adabiyotlar bilan ta'minlash ishlarini amalga oshiradi;

maktabdan tashqari ta'limning muhim masalalari bo'yicha yig'ilishlar va seminarlar o'tkazadi;

maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqadi, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining malaka oshirishini tashkil etadi;

o'quv rejalarini va ta'lim dasturlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar tayyorlaydi.

11. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari:

6 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan barcha o'quvchilarga ularning har tomonlama kamol topishlari va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun imkoniyat yaratadi;

o'quvchilar shaxsining rivojlanishiga, ularning mustaqil bilim olishlari va ijodiy mehnat qilishlariga shart-sharoit yaratadi;

mahalliy davlat hokimiyyati organlari bilan birgalikda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga oid chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

bolalarning qiziqishlariga ko'ra ularning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilgan to'garaklar ochadi;

fan asoslari bo'yicha qo'shimcha ta'lim beradi;

bolalarga san'at va hunarmandchilikning turlarini o'rgatadi;

o'quvchilar o'rtasida qobiliyatli, iqtidorlilarini aniqlash, shaxsni rivojlantirishga qaratilgan festival, tanlov, sayyohlik slyotlari va boshqa tadbirlarni o'tkazadi.

III bo'lim. Maktabdan tashqari ta'limning asosiy yo'nalishlariga qo'yiladigan talablar

12. Maktabdan tashqari ta'lim o'quvchilarning qiziqish va xohishlariga muvofiq ularning darsdan bo'sh vaqtlarida amalga oshiriladi hamda o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi.

13. Maktabdan tashqari ta'limga quyidagi yo'nalishlarda Davlat talablari qo'yiladi:

madaniy-estetik yo'nalish;

ilmiy yo'nalish;

texnik yo'nalish;

sport yo'nalishi;

tajriba — naturalistik yo'nalishi;

sayyohlik — o'lkashunoslik yo'nalishi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq maktabdan tashqari ta'limga boshqa yo'nalishlarda ham Davlat talablari qo'yilishi mumkin.

1-bob. Madaniy-estetik yo'nalish

14. Madaniy-estetik yo‘nalish quyidagi turkumlarni o‘z ichiga oladi:
ma’naviy-ma’rifiy turkum;
tasviriy san’at turkumi;
xalq amaliy san’ati turkumi;
dizayn turkumi;
musiqa ta’limi turkumi;
xoreografiya (raqs san’ati) turkumi;
teatr san’ati turkumi;
pazandachilik va qandolatchilik turkumi.
Mazkur yo‘nalish shu kabi boshqa turkumlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

1-§. Ma’naviy-ma’rifiy turkum

15. Ma’naviy-ma’rifiy turkumda “Yosh kitobxon”, “Kitobsevarlar”, “Munozara”, “Orasta qizlar” va shu kabi boshqa to‘garak, klublar tashkil etiladi.

16. Ma’naviy-ma’rifiy turkumda ta’lim oluvchilar quyidagilar haqida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari lozim:

mustaqil fikrlash va axborot olish madaniyati;
milliy an’analar, urf-odatlar, umuminsoniy qadriyatlar va ularni e’zozlash;
sog‘lom turmush tarzi;
yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati;
moddiy va nomoddiy madaniy merosimiz va ularni asrab-avaylash;
tarixiy obidalar va mustaqillik davrida bunyod etilgan inshootlar;
milliy istiqlol g‘oyasining mazmun-mohiyati;
kitobning tarbiyadagi o‘rni va kitobxonlikning ahamiyati.

2-§. Tasviriy san’at turkumi

17. Tasviriy san’at turkumi bo‘yicha “Tasviriy san’at”, “Sharq miniatyurasi”, “Mayda plastika” va shu kabi boshqa to‘garaklar tashkil etiladi.

18. Tasviriy san’at turkumida ta’lim oluvchilar o‘z to‘garaklariga mos ravishda quyidagilar haqida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari lozim:

tasviriy san’at turlari (rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, me’morchilik);
tasviriy san’at janrlari (natyurmort, manzara, portret, animal, tarixiy, botal) va ularning farqi;
tasviriy san’at sohasida ijod qiluvchi mashhur o‘zbek va chet el rassomlari hayoti va ijodi;
bo‘yoqlar, qora qalanda shtrixlash usullari va konstruktiv tuzilishiga ko‘ra sodda ko‘rinishdagi predmetlarni chizish;
o‘zbek xalq ertaklari asosida kompozitsiya chizish va bo‘yash;
ko‘p kishidan iborat miniatyura kompozitsiyasini tuzish va unga rang berish;
Xusrav Dehlaviy asarlariga ishlangan rasmlar asosida rangli tasvirlar yaratish;
Yevropa va Sharq miniatyurasidagi rang va chiziqlarning farqi;
Kamoliddin Behzodning sharq miniatyura uslubi;
turli ko‘rinishdagi tabiiy materiallarga miniatyura usulida tasvirlar tushirish va ularga badiiy ishlov berish;
loy va plastilindan turli ko‘rinishdagi o‘yinchoq, haykalcha va buyumlar yasash.

3-§. Xalq amaliy san’ati turkumi

19. Xalq amaliy san’ati turkumi bo‘yicha “Kulolchilik”, “Kandakorlik”, “Naqqoshlik”, “Yog‘och o‘ymakorligi”, “Ganch o‘ymakorligi”, “Duradgorlik”, “Zargarlik”, “Kosibchilik”, “Maxsido‘zlik”, “Bichish-tikish”, “To‘qish”, “Munchoqli bezak”, “Kashtachilik”, “Do‘ppido‘zlik”, “Zardo‘zlik”, “Gilamdo‘zlik”, “Savatchilik”, “Chopondo‘zlik” va shu kabi boshqa to‘garaklar tashkil etiladi.

20. Xalq amaliy san’ati turkumida ta’lim oluvchilar o‘z to‘garaklariga mos ravishda quyidagilar haqida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari lozim:

xalq amaliy san’ati namoyandalari va ularning ish uslublari;

xalq amaliy san'atida ishlatiladigan naqshning boshlang'ich elementlari va bezak turlari; badiiy bezalgan buyumlarga ishlov berish; amaliy bezakni chizish va unga ishlov berish; ganch va yog'och o'ymakorligida ishlatiladigan xomashyo, asbob-uskunalar va ulardan foydalanish;

yog'ochning turlari va xususiyatlari;

yog'och o'ymakorligi uskunalarini va ulardan foydalanish;

kompozitsiyalar chizish, o'yish va turli uslubda pardozlash;

yog'ochga ishlov berish, sillqlash, laskellash, bo'yoq berish va yelimlash;

quticha yasash va uning sirtiga bezak naqshlarini o'yish;

milliy buyumlar yasash va unga o'yma naqshlar tushirish;

duradgorlik asbob-uskunalaridan foydalanish va uy-ro'zg'or buyumlari yasash;

kulolchilik dastgohidan foydalanish, xomashyo, kulolchilik buyumlari va ularni yasash;

kosibchilikda charm tayyorlash texnologiyasi, charm materiallaridan foydalanish va oyoq kiyimlarni ta'mirlash;

kandakorlik naqshlarini chizish va ulardan foydalangan holda turli buyumlarga ishlov berish;

zargarlik xomashyolari, asbob-uskunalarini ishlatish hamda turli zargarlik buyumlari yasash;

tikuv mashinasi turlari, ularda tikish va andoza olish usullari;

turli xil liboslarga tikuv mashinasida choclar tikish;

to'qish texnikasi, halqa turlari va turli buyumlar to'qish;

munchoqli bezak xomashyolari va bezash turlari;

turli buyumlarni munchoq bilan bezash;

kashtachilikda foydalaniladigan ish qurollari;

kashtachilikning asosiy choclar (ko'klassh, yashirin, to'g'ri, yo'rma, iroqi, bosma) va ularni tikish;

kashtachilikning naqsh namunalari (qirma, pax, lo'la, choka pardoz)ni chizish;

zardo'zlik dastgohidan foydalanish;

zardo'zlik naqshlari turlari va ularni turli usulda tikish;

tofta tayyorlash hamda uni ip va zar bilan bezash;

gilam to'qish dastgohini ishlatish, to'qish texnikasi, ishlatiladigan xomashyolar;

do'ppi turlari, choclar va do'ppi tikish texnikasi;

qizlar va o'g'il bolalar do'ppilarini tikish va ularni pardozlash;

savat to'qish va uning usullari;

mahsi qoliplarini tayyorlash, mahsini bichish va tikish;

choponni turli choclar yordamida qavish, qavilgan qismlarni birlashtirish va ularga bezak berish.

4-§. Dizayn turkumi

21. Dizayn turkumi bo'yicha "Liboslar dizayni", "Fotodizayn", "Landshaft dizayni", "Karving", "Ekodizayn", "Yosh arxitektor", "Interyer" va shu kabi boshqa to'garaklar tashkil etiladi.

22. Dizayn turkumida ta'lif oluvchilar o'z to'garaklariga mos ravishda quyidagilar haqida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim:

matva liboslar, ularning turlari;

liboslar dizayni va uning turlari;

liboslarning milliy va zamonaviy dizaynlari loyihasini yaratish;

dizayn yaratishda mavsumiy liboslarni farqlay olish;

landshaft dizaynnini yaratish usullari;

manzarali o'simliklardan landshaft dizaynnini yaratish;

joyning tuproq iqlim sharoitlariga moslashgan o'simlik turlarini tanlash;

turli sabzavot va poliz mahsulotlariga bezak berish;

kompyuter yordamida oq-qora rangli fotosuratlarning rangli shaklini yaratish;

arxitektura va qurilishda ishlatiladigan xomashyolar va texnik vositalar; turli o‘lchamdagи bino va inshootlar loyihalarini chizish.

5-§. Musiqa ta’limi turkumi

23. Musiqa ta’limi turkumi bo‘yicha “Xalq cholg‘ulari”, “Torli cholg‘ular”, “Fortepiano”, “Damli va zarbli cholg‘ular”, “Estrada cholg‘ulari”, “An’anaviy cholg‘ular”, “Vokal”, “Folklor” va shu kabi boshqa to‘garak, sinf va klublar tashkil etiladi.

24. Musiqa ta’limi turkumida ta’lim oluvchilar o‘z to‘garaklariga mos ravishda quyidagilar haqida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari lozim:

musiqaning asosiy janrlari;
taniqli o‘zbek va chet el bastakorlari ijodi;
musiqiy faoliyat turlari (jo‘rnavozlik, cholg‘u ansambl, cholg‘u turlari);
o‘zbek xalq cholg‘u asboblarining tuzilishi va ularni chalish;
doirani ushslash va uni turli usullarda chalish;
Usta Olim darsligi usullari va jo‘r bo‘luvchilik qoidalari;
orquestr turlari, ko‘p tarqalgan cholg‘u nomlari;
buyuk musiqachi-ijrochilarining ijodiy faoliyati;
mumtoz musiqa asarlari va xalq ijodiyoti namunalar;
cholg‘uda xalq kuy-qo‘shiqlari, klassik va zamonaviy bastakorlar asarlarini ijro etish;
notalar yordamida fortepianoda ijro etish;
xor tarkibida asarlarni ijro etish;
ansambl va orkestr tarkibida ijro etish;
folklor qo‘shiqlar turlari va ularga xos liboslar;
folklorqa oid mavsumiy va marosim qo‘shiqlarini ijro etish;
folklorqa xos bo‘lgan turli mavsumiy va marosim qo‘shiqlariga xos raqslar.

6-§. Xoreografiya (raqs san’ati) turkumi

25. Xoreografiya (raqs san’ati) turkumi bo‘yicha “O‘zbek xalq raqslari”, “Jahon xalq raqslari” va shu kabi boshqa to‘garaklar, sinf va klublar tashkil etiladi.

26. Xoreografiya (raqs san’ati) turkumida ta’lim oluvchilar o‘z to‘garaklariga mos ravishda quyidagilar haqida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari lozim:

taniqli o‘zbek va chet el raqqos va raqqosalarining ijodi;
raqsning asosiy harakatlari;
xalq va mumtoz raqs san’atining asosiy janrlari va ijro uslublari;
mashhur raqs ijrochilar va sahnalashtiruvchi baletmeysterlar;
raqs harakatlarini tez, chaqqon va ma’noli ijro etish;
raqs turlari va uslublari, ularni ijro etish;
nisbatan oddiy raqslarni yakka ijro etish;
turli millat va elatlarning raqs harakatlari, ularni ijro etish;
klassik va zamonaviy raqslarni ijro etish.

7-§. Teatr san’ati turkumi

27. Teatr san’ati turkumi bo‘yicha “Drama”, “Qo‘g‘irchoq teatri” va shu kabi boshqa to‘garaklar tashkil etiladi.

28. Teatr san’ati turkumida ta’lim oluvchilar o‘z to‘garaklariga mos ravishda quyidagilar haqida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari lozim:

teatr san’ati tarixi, taniqli o‘zbek va chet el aktyorlari ijodi;
teatr san’atining asosiy janrlari;
turli obrazlarni yaratish uslublari;
klassik teatr spektakllari;
o‘zbek dramaturglari yaratgan milliy asarlar;
turli obrazlardan sahna ko‘rinishlarini ijro etish;
sahna madaniyati va nutqi;

sahnada kuylash va rol ijro etish;
turli hayvonlar obraziga ovoz berish;
qo‘g‘irchoqlar va ularni o‘ynatish usullari;
qo‘g‘irchoqlarni tanlangan ssenariy bo‘yicha turli usullarda o‘ynatish;
o‘zbek va jahon xalq ertaklari namunalari va ularni sahnalaشتirish.

8-§. Pazandachilik va qandolatchilik turkumi

29. Pazandachilik va qandolatchilik turkumi bo‘yicha “Yosh pazanda”, “Yosh qandolatchi” va shu kabi boshqa to‘garaklar tashkil etiladi.

30. Pazandachilik va qandolatchilik turkumida ta’lim oluvchilar o‘z to‘garaklariga mos ravishda quydagilar haqida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari lozim:

pazandachilik va qandolatchilikda foydalilanidigan asbob-uskunalar, jihozlar va ulardan foydalanish;

salatlar turlari va ularda ishlatiladigan masalliqlar;
salatlarni turli ko‘rinishlarda tayyorlash va ularga bezak berish;
taomlarni turli ko‘rinish va shakkarda tayyorlash;
qandolatchilik mahsulotlari turlari va ularda ishlatiladigan mahsulotlar;
qandolatchilik mahsulotlarini pishirish tartibi va ularni tayyorlash;
qandolatchilik mahsulotlarini turli usullarda bezash.

2-bob. Ilmiy yo‘nalish

31. Ilmiy yo‘nalishda fan asoslari bo‘yicha qo‘shimcha ta’lim beriladi hamda fanlar va tillarni o‘rgatish uchun to‘garak va kurslar tashkil etiladi.

32. Ilmiy yo‘nalishda ta’lim oluvchilar o‘z to‘garaklariga mos ravishda quydagilar haqida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari lozim:

fan nazariyalari va ularning ilmiy asoslari;
fanlarning rivojlanishida hissa qo‘shgan buyuk vatandoshlarimiz va jahon mutafakkirlari;
mohir kasb-hunar egasi va mutaxassis bo‘lib yetishishida fanlarning o‘rni va ularning o‘zaro bog‘liqligi;
fan asoslari bo‘yicha olgan qo‘shimcha bilimlaridan amaliyotda foydalana olish;
chet tillaridagi so‘z va iboralarni to‘g‘ri o‘qish, talaffuz qilish, yozish va tushunish;
ayrim mavzular bo‘yicha erkin muloqot qilish;
grammatika va punktuatsiya qoidalariga amal qilgan holda gaplar tuzish.

3-bob. Texnik yo‘nalish

33. Texnik yo‘nalish quydagi turkumlarni o‘z ichiga oladi:
boshlang‘ich texnik modellashtirish va konstruksiyalash turkumi;
avtomatika va elektronika turkumi;
texnik vositalar va kompyuter texnologiyalari turkumi.
Mazkur yo‘nalish shu kabi boshqa turkumlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

1-§. Boshlang‘ich texnik modellashtirish va konstruksiyalash turkumi

34. Boshlang‘ich texnik modellashtirish va konstruksiyalash turkumi bo‘yicha “Avtomodel”, “Raketamodel”, “Aviamodel”, “Kemasozlik”, “Yosh konstruktor va ixtirochi” va shu kabi boshqa to‘garaklar tashkil etiladi.

35. Boshlang‘ich texnik modellashtirish va konstruksiyalash turkumida ta’lim oluvchilar o‘z to‘garaklariga mos ravishda quydagilar haqida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari lozim:
texnikaning yaratilish tarixi, texnika sohasidagi kashfiyotlar va olimlar;
ishlatiladigan xomashyolar va asbob-uskunalar;
foydalaniladigan dastgohlarning turlari va ulardan foydalanish usullari;
chizmachilikning boshlang‘ich asoslari va elementlari;
texnik modellar va maketlarning boshlang‘ich elementlarini chizish;
qog‘oz, karton va faneradan turli xil modellar yasash va ularga bezak berish;
texnik model va maketlarning shablonini tayyorlash va modellar yarata olish;

turli xil texnik vositalardan andoza olish, ularni yasash va amaliyatga mustaqil tatbiq etish.

2-§. Avtomatika va elektronika turkumi

36. Avtomatika va elektronika turkumi bo'yicha "Radiotexnika", "Elektronika va aloqa", "Robototexnika", "Elektron o'yinchoqlar" va shu kabi boshqa to'garaklar tashkil etiladi.

37. Avtomatika va elektronika turkumida ta'lim oluvchilar o'z to'garaklariga mos ravishda quyidagilar haqida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim:

fizika qonunlari, texnika xavfsizligi qoidalari;

radiotexnika, elektronika, elektrotexnika vositalari, aloqaning tarixi va bu boradagi kashfiyotlar;

avtomatika va elektron hisoblash texnikalari, elektron va radiomontaj uskunalaridan foydalanish;

elektron qarshiligi, tok kuchi va kuchlanishi, tok o'lchaydigan asboblar, rezistorlarning turlari va tavsifi;

yarim o'tkazuvchanlik xossasiga ega bo'lgan elementlar, yumshoq va qattiq magnit materiallari bilan ishslash, tok kuchi va kuchlanishini o'lhash;

elektron o'yinchoqlarning rivojlanish tarixi;

elektron o'yinchoqlarni tayyorlashda ishlatiladigan asbob-uskunalar, dastgohlar va kimyoviy ashyolardan foydalanish;

mexanik, texnik va eng sodda elektron o'yinchoqlarni hamda turli xil o'yinchoq robotlarni yasash;

qisqa va ultraqisqa to'lqinlarda efirga chiqish;

robototexnikani modellashtirish va unda foydalaniladigan xomashyolar;

robototexnika turlarini modellashtirishda texnik asbob-uskunalar va dastgohlardan to'g'ri foydalanish.

3-§. Texnik vositalar va kompyuter texnologiyalari turkumi

38. Texnik vositalar va kompyuter texnologiyalari turkumi bo'yicha "Kompyuter saboqlari", "Kompyuter dizayni va grafikasi", "Yosh dasturchi", "Yosh fotohavaskor", "Kino-videohavaskor", "Kompyuter servis xizmati" va shu kabi boshqa to'garaklar tashkil etiladi.

39. Texnik vositalar va kompyuter texnologiyalari turkumida ta'lim oluvchilar o'z to'garaklariga mos ravishda quyidagilar haqida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim:

fizika qonunlari, texnika xavfsizligi qoidalari;

kompyuterda dasturlash tillari;

kompyuter texnikasiga dasturiy ta'minotlarni o'rnatish va kompyuterni tarmoqqa ularash;

kompyuterning texnik qismlarini almashtirish;

kompyuterda dizayn yaratish hamda grafika usulida ishslash;

kino va foto tasvirga olish va uning tarixi;

videoapparaturalarning turlari va ulardan foydalanish;

kompyuter texnikalaridan foydalanish va dasturlar tuzish;

elektron axborot tashuvchi vositalar (optik disk, flesh-karta)dan foydalanish.

4-bob. Sport yo'nalishi

40. Sport yo'nalishida sportning olimpiya, milliy va boshqa turlari bo'yicha to'garaklar, seksiyalar va guruuhlar tashkil qilinadi.

41. Sport yo'nalishida ta'lim oluvchilar quyidagilar haqida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim:

jismoniy mehnat, jismoniy mashg'ulot va sportning inson organizmiga ta'siri;

o'zini o'zi jismoniy va tibbiy jihatdan nazorat qilish;

jismoniy tarbiya va sport haqidagi tushunchalar;

yurtimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida ommaviylikni oshirish borasida olib borilayotgan islohotlar;

sport turlari va ularning farqi;

sport turlari bo'yicha Olimpiada o'yinlari, jahon va xalqaro turnirlarning sovrindorlari bo'lgan milliy sportchilar va ularning erishgan yutuqlari;

o'zi shug'ullanayotgan sport turining kelib chiqish tarixi va uning ahamiyati;

o'zi shug'ullanayotgan sport turining qoidalari, jismoniy mashqlar va usullar;

sport turlari bo'yicha xalqaro federatsiya va assotsiatsiyalar tomonidan joriy qilingan yangi qoidalari, xalqaro sport musobaqalari;

o'zi shug'ullanayotgan sport turi bo'yicha turli usullarni amalda qo'llash;

o'zi shug'ullanayotgan sport turi bo'yicha ko'rgazma namoyishini ko'rsata olish.

5-bob. Tajriba-naturalistik yo'naliш

42. Tajriba-naturalistik yo'naliш quyidagi turkumlarni o'z ichiga oladi:

ekologiya va salomatlik turkumi;

o'simlikshunoslik (flora) turkumi;

hayvonotshunoslik (fauna) turkumi.

Mazkur yo'naliш shu kabi boshqa turkumlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

1-§. Ekologiya va salomatlik turkumi

43. Ekologiya va salomatlik turkumi bo'yicha "Yosh ekolog", "Yosh tabiatshunos", "Oila va salomatlik" va shu kabi boshqa to'garaklar tashkil etiladi.

44. Ekologiya va salomatlik turkumida ta'lim oluvchilar o'z to'garaklariga mos ravishda quyidagilar haqida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim:

yil fasllarining xarakterli belgilari, mavsumiy o'zgarishlarning organizmga ta'siri;

iqlim va ob-havoning o'zgarishi to'g'risidagi dastlabki tushunchalar;

er, suv, tuproq, harorat, o'simlik va hayvonlar;

jonli va jonsiz tabiat, ularning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi;

ekologik omillarning bir-biridan farqlari va organizmga ta'siri;

tabiatda uchraydigan zaharli o'simlik va hayvonot turlari;

atrof-muhitni muhofaza qilish;

madaniy o'simliklardan ekibana va gerbariyalar tayyorlash;

sog'lom turmush tarzi va gigiyena qoidalari;

jismoniy mehnat, jismoniy mashg'ulot va sportning inson organizmiga ta'siri;

alkogol va tamaki mahsulotini iste'mol qilishning inson organizmiga ta'siri;

organizmga zarar keltiruvchi mikroblar va parazitlar;

mehnat va dam olishni to'g'ri tashkil etish va ularga amal qilish;

to'garak xonalar, xonadonlar va jamoat joylari uchun belgilangan sanitariya-gigiyena qoidalari;

birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;

inson organizmining tuzilishi va qon guruhlari;

barqarorlik omillari va umuminsoniy qadriyatlar;

tabiiy resurslar va ulardan oqilonqa foydalanish;

odam va uning salomatligi atrof-muhitga bog'liqligi.

2-§. O'simlikshunoslik (flora) turkumi

45. O'simlikshunoslik (flora) turkumi bo'yicha "Bog'dorchilik", "Gulchilik", "Sabzavotchilik" va shu kabi boshqa to'garaklar tashkil etiladi.

46. O'simlikshunoslik (flora) turkumida ta'lim oluvchilar o'z to'garaklariga mos ravishda quyidagilar haqida bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari lozim:

o'simliklar va ularning turlari;

subtropik o'simliklarni turli usullarda payvandlash bo'yicha tajriba o'tkazish;

sabzavot-poliz ekinlarining turlari va ularni parvarishlash;

issiqxonada o'stiriladigan sabzavot-poliz ekinlari va ularni parvarishlash;

sabzavot-poliz o'simliklarni urug'lar va ko'chatlar orqali ko'paytirish;

O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan o'simliklar;

mevali va manzarali daraxtlar, ularni parvarish qilish va ko‘paytirish;
turli usullarda bog‘ ekinlarining kasallik va zararkunandalariga qarshi kurashish bo‘yicha tajriba o‘tkazish;
gullarning oilalari, turlari va nomlari;
gullarni turli usullarda ko‘paytirish bo‘yicha tajriba o‘tkazish.

3-§. Hayvonotshunoslik (fauna) turkumi

47. Hayvonotshunoslik (fauna) turkumi bo‘yicha “Qushchilik”, “Parrandachilik”, “Chorvachilik”, “Asalarichilik”, “Akvarium baliqchiligi” va shu kabi boshqa to‘garaklar tashkil etiladi.

48. Hayvonotshunoslik (fauna) turkumida ta’lim oluvchilar o‘z to‘garaklariga mos ravishda quyidagilar haqida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari lozim:

qushlar, parrandalar, chorva mollari, asalari va akvarium baliqlarining oziq-ovqatlari;
qushlarning turlari va ularni parvarishlash;
madaniy parranda turlari, zotlari va ularni parvarishlash;
chorva mollari va ularni parvarishlash;
uy hayvonlarining zotlariga ko‘ra ovqatlanish ratsionlarini tuzish;
noyob va yo‘qolib borayotgan hayvon turlarini muhofaza qilish;
asalari va ularni parvarishlash;
akvarium baliqlari turlari, ularning biologik xususiyatlari, oziqlantirish tartibi va parvarishlash usullari;
akvarium baliqlarining kasalliklari va ularni turli usullarda davolash bo‘yicha tajriba o‘tkazish.

6-bob. Sayyohlik-o‘lkashunoslik yo‘nalishi

49. Sayyohlik-o‘lkashunoslik yo‘nalishi quyidagi turkumlarni o‘z ichiga oladi:
sayyohlik turkumi;
o‘lkashunoslik turkumi.

Mazkur yo‘nalish shu kabi boshqa turkumlarni ham o‘z ichiga olishi mumkin.

1-§. Sayyohlik turkumi

50. Sayyohlik turkumi bo‘yicha “Yosh sayyoh”, “Velosayyoh”, “Piyoda sayyohlik”, “Yosh ekskursovod” va shu kabi boshqa to‘garaklar tashkil etiladi.

51. Sayyohlik turkumida ta’lim oluvchilar o‘z to‘garaklariga mos ravishda quyidagilar haqida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari lozim:

mamlakatimizdagi tarixiy obidalar, ular haqidagi afsona va rivoyatlar;
sayyohlik va turizm tushunchasi;
sayohatlarni tashkil etish;
sayyohlik anjomlari, oziq-ovqat mahsulotlari hamda ulardan samarali foydalanish;
turizm sportining texnika va taktikasi;
respublika, viloyat, tuman (shahar)lardagi eng ommabop sayohat marshrutlari;
o‘lka tabiiy geografiyasi;
piyoda va velosayyohlik marshrutlari;
sayohat marshrutini ishlab chiqish;
sayohat davrida tunash, to‘xtash joylarini tanlash, chodirni o‘rnata olish va sayyohlik arqonini turli xil bog‘lash;
sayohat davrida gulxan yoqish va ovqat tayyorlash;
birinchi tez tibbiy yordam ko‘rsatish;
fenologik kuzatuv ishlarini olib borish;
noma‘lum joyda karta va kompas, shuningdek tabiat belgilariiga qarab mo‘ljal olish;
xaritalardan foydalanish, shuningdek xaritalardan geografik, geologik va arxeologik obyektlarning geografik koordinatlarini va masofalarni aniqlash;
yuk ko‘tarish va piyoda yurish me’yorlari;

o‘z o‘lkasidagi mavjud turistik obyektlarga tavsif berish;
o‘lkada kuzatiladigan tabiiy ofatlar va ularning oqibatlari.

2-§. O‘lkashunoslik turkumi

52. O‘lkashunoslik turkumi bo‘yicha “Yosh o‘lkashunos”, “Tarixiy o‘lkashunoslik”, “Adabiy o‘lkashunoslik”, “Yosh muzeyshunos” va shu kabi boshqa to‘garaklar tashkil etiladi.

53. O‘lkashunoslik turkumida ta’lim oluvchilar o‘z to‘garaklariga mos ravishda quyidagilar haqida bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari lozim:

o‘lkaning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi;
o‘lkaning yirik geografiya, tarix, biologiya, arxeologiya, muzeyshunoslik va adabiyot fanlarining yetuk namoyandalari;
o‘lkaning joy nomlari, qadimgi va ayni paytdagi tabiiy geografik sharoiti (geologik tuzilishi, relyefi, iqlimi, suv resurslari, o‘simglik va hayvonot olami, tuproqlari);
o‘lkaga oid tarixiy va geografik xaritalar;
o‘z o‘lkasidagi tog‘ tizmalari va cho‘qqilari;
o‘z o‘lkasidagi tabiiy resurslar hamda ulardan oqilona foydalanish;
o‘lkadagi shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodi;
mavjud sheva va lajhalar;
muzeylarning shakllari va turlari;
muzey ashyolari va kolleksiyalari tasnifi;
muzey kolleksiyalarini saqlash;
o‘lkadagi muzeylar va aholiga xizmat ko‘rsatish tartibi;
maktab muzeylarini tashkil etish;
milliy muzey fondi va davlat katalogi;
muzeylar va muzeyshunoslik ishlarini tashkil etish;
adabiy, tarixiy o‘lkashunoslik muzeylarini tashkil etish uchun qo‘lyozmalar, toshbosmalar, bosmaxonalarda chop etilgan jurnal, gazeta, kitob, albom va boshqa materiallarni to‘plash.

IV bo‘lim. O‘quv yuklamasi hajmi va ta’lim sifatini nazorat qilish

1-bob. O‘quv yuklamasi hajmi

54. 6 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun to‘garak mashg‘ulotlari haftalik va yillik o‘quv yuklamasining eng kam hajmi quyidagicha:

barcha yo‘nalishlar bo‘yicha haftalik o‘quv yuklamasining eng kam hajmi birinchi o‘quv yilida 4 akademik soatni, keyingi o‘quv yillarida 6 akademik soatni tashkil etadi;

barcha yo‘nalishlar bo‘yicha yillik o‘quv yuklamasining eng kam hajmi birinchi o‘quv yilida 144 akademik soatni, keyingi o‘quv yillarida 216 akademik soatni tashkil etadi;

sayyohlik-o‘lkashunoslik yo‘nalishi bo‘yicha haftalik o‘quv yuklamasining eng kam hajmi birinchi va keyingi o‘quv yillarida 6 akademik soatni, yillik o‘quv yuklamasining eng kam hajmi birinchi va keyingi o‘quv yillarida 216 akademik soatni tashkil etadi.

55. 6 yoshdagi bolalar uchun to‘garak mashg‘ulotlari 35 daqiqa davomida o‘tkaziladi va u haftada 2 akademik soatdan, bir o‘quv yilida 72 akademik soatdan oshmasligi lozim.

2-bob. Maktabdan tashqari ta’lim sifatini nazorat qilish

56. Maktabdan tashqari ta’lim sifatining nazorati ichki nazorat va jamoat nazorati usullarida olib boriladi.

57. Ichki nazorat — maktabdan tashqari ta’lim muassasasining o‘zi tomonidan amalga oshiriladi. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari Davlat talablariga mosligini aniqlash og‘zaki va yozma sinovlar, testlar, so‘rovnomalar, ko‘rik-tanlovlari, seminarlar, musobaqalar, amaliy ish natijalari hamda boshqa shakllarda amalga oshiriladi.

58. Ichki nazorat maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida o‘quv yilining birinchi yarmi va o‘quv yili yakunida o‘tkaziladi.

59. Ichki nazorat quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

joriy nazorat — o‘qituvchi tomonidan kunlik mashg‘ulot jarayonida ta’lim oluvchilarni baholash maqsadida og‘zaki so‘rov, yozma ishlar, testlar, konsert, diktant, amaliy ish, uy vazifasi va maktabdan tashqari ta’lim yo‘nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib boshqa shakllarda tashkil etiladi;

oraliq nazorat — yo‘nalishning ma’lum bir qismi, bo‘limi yakunlangandan so‘ng og‘zaki, yozma, testlar, so‘rovnomalari, ko‘rik-tanlovlari, musobaqalar, amaliy ish natijalari va maktabdan tashqari ta’lim yo‘nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib boshqa shakllarda tashkil etiladi;

yakuniy nazorat — o‘quv yili yakunida va o‘quv dasturining tegishli bo‘limi tugallangandan keyin og‘zaki, yozma, testlar, so‘rovnomalari, seminarlar, ko‘rik-tanlovlari, musobaqalar, amaliy ish natijalari va maktabdan tashqari ta’lim yo‘nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib boshqa shakllarda tashkil etiladi.

60. Joriy va oraliq nazorat maktabdan tashqari ta’lim yo‘nalishlarining xususiyatiga ko‘ra ayrim yo‘nalishlardagina o‘tkaziladi.

61. Jamoat nazorati ota-onalar va jamoat birlashmalari tomonidan amalga oshiriladi.

V bo‘lim. Yakuniy qoida

62. Mazkur Davlat talablari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Sog‘lijni saqlash vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi bilan kelishilgan.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi direktori J. ISMAILOV

2015-yil 30-mart

Sog‘lijni saqlash vaziri A. ALIMOV

2015-yil 30-mart

Madaniyat va sport ishlari vaziri v. v. b. B. AXMEDOV

2015-yil 30-mart

**Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi direktori
U. SALIMOV**

2015-yil 30-mart

(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 14-son, 175-modda; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.07.2021-y., 10/21/3313/0724-son)